



Nókis q. A.Dosnazarov k. 62 úy, 0 (361) 222-24-37, 222-24-63, faks: 222-98-30  
web-site: <http://kkedu.uz>, e-mail: [qoraqalpogiston\\_xtv@xtv.uz](mailto:qoraqalpogiston_xtv@xtv.uz)

«05» Avprel 2021- j.

03-01/9-1629 - sanli

**Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashiga**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Sizga, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi 34-son qarorining ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan quyidagilarni ma'lum qiladi:

2021-yil 26-30-yanvar kunlari oralig'ida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 25-yanvardagi 3-q/q-sonli qo'shma qarori asosida ta'lim muassasalarida "Davlat tili to'g'risidagi" Qonun hujjatlariga rioya etilishi, shuningdek, davlat tilining o'qitilishi yuzasidan Nukus shahridagi 3-17-maktablar, Taxiatosh tumanidagi 1-3-maktablar, Xo'jayli tumanidagi 2-35-maktablar, Amudaryo tumanidagi 27-67-maktablar, Qo'ng'iro't tumanidagi 35-4-maktablarda o'rganishlar olib borildi. O'rganilgan maktablarda ish hujjatlarining davlat tilida yuritilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

2021-yil 18-24-fevral kunlari oralig'ida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 24-fevraldagi 7-sonli bayonnomasi asosida Nukus shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli barcha umumta'lim maktablarida davlat tilida ish yuritish borasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 5-martdagi 3/1-sonli yig'ilishi qarori asosida barcha tuman(shahar) xalq ta'limi bo'limlariga qarashli umumta'lim maktablarida ish hujjatlarini yuritishda "Davlat tili to'g'risida" gi Qonun hujjatlariga rioya etilishi, tashqi yozuvlar (peshlavha, e'lon, axborot matnlar) davlat tilida, xatolarsiz yozilishini qayta ko'rib chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi va ijrosi yuzasidan ma'lumotlar olindi.

Shu bilan birga, 150 ta "Davlat tilida ish yuritish" qo'llanmasi, 750 ta "O'zbek tilining izohli lug'ati" barcha tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlariga yetkazildi.

Shuningdek, barcha tuman(shahar) xalq ta'limi bo'limlariga qarashli umumta'lim maktablarida o'zbek tili va qoraqalpoq tili fanidan tashkil etilgan tayanch maktablarda "Til- millat ko'zguzi" mavzusida amaliy seminarlar tashkil etilmoqda.

Davlat tilida ish yuritish bo'yicha QDU da tashkil qilingan malaka oshirish markazida 2021-yil 76 nafar xodim belgilangan reja asosida malaka oshirishi rejalashtirilgan.

*1-2-jadvallar ilova qilinadi*

Vazir o'rinbosari

Sh. Tadjimuratov

2021-yil 1-chorak davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim muassasalaridagi tashqi yozuvlar (peshlavha, e'lon, axborot matnlar) davlat tilida xatolarsiz yozilishini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar haqida

MA'LUMOT

Tuman (shahar) nomi	Aniqlangan o'zgartirilishi lozim bo'lgan tashqi yozuvlar	Shundan:						Olib borilgan tushuntirish va targ'ibotlar natijasida o'zgartirilgan tashqi yozuvlar	Shundan:					
		Xorijiy tilda yozilgan tashqi yozuvlar			Xato bilan yozilgan tashqi yozuvlar				Xorijiy tilda yozilgan tashqi yozuvlar		Xato bilan yozilgan tashqi yozuvlar			
		Peshlavha	Reklama	Boshqa e'lon va axborot matnlar	Peshlavha	Reklama	Boshqa e'lon va axborot matnlar		Peshlavha	Reklama	Boshqa e'lon va axborot matnlar	Peshlavha	Reklama	Boshqa e'lon va axborot matnlar
1	Nukus shahri	7	-	-	3	-	4	7	-	-	3	-	-	4
2	Amudaryo tumani	7	-	-	3	-	4	7	-	-	3	-	-	4
3	Beruniy tumani	9	-	-	3	-	4	7	-	-	3	-	-	4
4	To'rtko'l tumani	6	-	-	4	-	2	6	-	-	4	-	-	2
5	Elikqal'a tumani	4	-	-	2	-	2	4	-	-	2	-	-	2
6	Nukus tumani	25	-	-	10	-	15	25	-	-	10	-	-	15
7	Kegeyli tumani	5	-	-	3	-	2	4	-	-	2	-	-	2
8	Qorao'zak tumani	7	-	-	2	-	1	3	-	-	2	-	-	1
9	Chiboy tumani	4	-	-	2	-	2	4	-	-	2	-	-	2
10	Shomanay tumani	6	-	-	5	-	1	6	-	-	5	-	-	1
11	Xo'jayli tumani	11	-	-	7	2	2	6	-	-	3	1	-	2
12	Taxiatosh tumani	15	-	-	7	-	8	6	-	-	3	-	-	3
12	Qanliko'l tumani	7	-	-	6	-	1	7	-	-	6	-	-	1
14	Taxtako'pir tumani	6	-	-	4	-	2	5	-	-	3	-	-	2
15	Qo'ng'iro't tumani	8	-	-	6	-	2	8	-	-	5	-	-	2
16	Bo'zatov tumani	5	-	-	4	-	2	4	-	-	2	-	-	2
17	Mo'ynoq tumani	11	-	-	5	4	2	4	-	-	2	-	-	2
	<b>JAMI</b>	<b>143</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>76</b>	<b>6</b>	<b>56</b>	<b>113</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>60</b>	<b>1</b>	<b>0</b>	<b>51</b>

2021-yil 03 apreldagi  
93-01/9-1629 - sonli xatga 2-ilova

Tashqi yozuvlar (peshlavha, reklama va e'lon, axborot matnlar) davlat tilida, xatolarsiz yozilishini ta'minlash haqida

#### MA'LUMOT

Tashqi yozuvlarning xorijiy tilda yoki xato bilan yozilishiga sabab bo'layotgan omillar	Tashqi yozuvlarning davlat tilida, xatolarsiz yozilishini ta'minlash bo'yicha takliflar
Bannerlar ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan kichik korxonalarda faoliyat yurituvchi xodimlarning davlat tili bo'yicha imlo savodxonligining yetarli emasligi	Bannerlar ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan kichik korxonalarda faoliyat yurituvchi xodimlarni davlat tili bo'yicha maqsadli kurslarda o'qitilishini yo'lga qo'yish
Ijtimoiy tarmoqlarda imlo savodxonligiga e'tibor bermaslik	Davlat tilidagi mobil ilovalarni ko'paytirish